



29.07.2022 даги

ООО ОУВЕК МАХ КРЕДО МИКРО ва Гулистон шаҳар Ободонлаштириш бошқармаси ўртасида  
165450900,00 сўм умумий суммага тузилган 26 - сонли шартномага

**ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ\***

Боб \_\_\_\_\_ 110  
Шахсий газна ҳисобварақ \_\_\_\_\_ 100022860244017045201110007

2022 й. ойлар номи.	Харажатлар тури** (бюджет таснифининг тегишли коди)			сўмда
	4233100			Жами
Январь				
Февраль				
Март				
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь	165 450 900,00			165 450 900,00
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
<b>Жами йил бўйича</b>	<b>165 450 900,00</b>			<b>165 450 900,00</b>

Жами 165450900,00 сўм

Бир юз олти беш миллион тўрт юз эллик минг тўққиз юз сўм 00  
тийин  
сумма сўз билан

Юқоридаги кўрсатилган суммадан 49635270.00 сўм ёки 30,00%\*\*\* шартноманинг умумий суммасидан  
\_\_\_\_\_ % \*\*\*20 \_\_\_\_\_ ойида тўланиши лозим.

(\* ) — бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан вазначилик бўлинмасига икки нусхада  
таклим этилади;

(\*\*) — бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;

(\*\*\*) — Юқоридаги кўрсатилган суммадан ойига \_\_\_\_\_ % жорий ойнинг \_\_\_\_\_ санасигача ҳар ойда олдиндан тўланиши лозим  
(ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан коммунал хизматлар кўрсатиш, алоқа  
хизматлари ва қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳар ой доимий равишда товарлар (ишлар, хизматлар) етказиб бериш  
шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириш ҳолларида тўлдирилади).

Буюртмачи раҳбари



М.У.

Буюртмачи бош бухгалтери

(имзо)

Сардор Гаипов Туйғунович

Ф.И.Ш.

(имзо)

Мухаммадиев Д.

Ф.И.Ш.

Вазначилик бўлинмасининг  
ходими қабул қилди

\_\_\_\_\_ (имзо)

Буюртмачи ходими  
қабул қилди

\_\_\_\_\_ (имзо)

« \_\_\_\_\_ » 20 \_\_\_\_\_ й.

« \_\_\_\_\_ » 20 \_\_\_\_\_ й.

Кейинги ўринларда “**Буюртмачи**” деб юритиладиган “**Гулистон шаҳар ободонлаштириш бошқармаси**” номидан Низоми асосида иш кўрувчи бошлиғи С.Гаипов бир томондан, матнда кейинги ўринларда “**Пудратчи**” деб юритиладиган **ООО ОУБЕК МАХ KREDO MIKRO** Низоми асосида иш кўрувчи раҳбари З.Розиков иккинчи томондан, ушбу шартномани туздилар.

### I. ШАРТНОМАНИНГ МАҚСАДИ

1.1. “**Пудратчи**” ушбу шартнома шартларига **Сирдарё вилояти Гулистон шаҳар “Улуғ йўл” МФЙ** ҳудудидаги **Нуртепа кўчасини жорий таъмирлаш** ишларини бажариш мажбуриятини олади. “**Буюртмачи**” эса “**Пудратчи**”га бажарилиши лозим бўлган ишлар учун тегишли меъёрий ҳужжатлар ва ташкилот нормативлари асосида тузилган лойиха-смета ҳужжатларида кўзда тутилган маблағни тўловини амалга ошириш мажбуриятини олади.

### II. ШАРТНОМАНИНГ БАҲОСИ ВА ХИСОБ КИТОБ ТАРТИБИ

2.1. 2022 йил 27 июль кунги танловда (**ЛОТ рақами № 121265**) ғолиб бўлиб бажарилиши лозим бўлган ишлар қиймати ( ҚҚС ва барча солиқлар, йиғимлар ва ажратмаларни ўз ичига олган ҳолда)га асосан жорий нархларда **165 450 900 (Бир юз олтмиш беш миллион тўрт юз эллик минг туккиз юз)** сўмни ташкил этади.

2.2. Шартнома томонлар ўртасида имзоланиб, манзиллик рўйхати тасдиқланиб молиялаштирилган маблағи аниқлангандан сўнг тегишли Ҳазначилик тизимидан (Узазбо дастури) рўйхатдан ўтиб, маблағ Республика ёки маҳаллий бюджетдан “**Буюртмачи**” махсус ҳисобига туширилганидан сўнг, 10 банк иш кунини “**Буюртмачи**” томонидан бажариладиган ишлар қийматининг аванс (бўнак) тарикасида 30 % келишилган сумма “**Пудратчи**”нинг ҳисоб рақамига ўтказиб беради.

2.3. Маблағнинг қолган қисми Республика ёки маҳаллий бюджетдан “**Буюртмачи**” махсус ҳисобига туширилганидан сўнг, “**Пудратчи**” томонидан топширилган бажарилган ишлар далолатномаси ва бажарилган ишлар қийматлари тўғрисидаги маълумотномалар асосида 30 банк иш кунини ўтказиб беради.

2.4. “**Пудратчи**” томонидан иш тўлиқ бажариб топширилиб, қабул қилиш-топшириш далолатномаси ва бажарилган ишлар қийматлари тўғрисидаги маълумотномалар 2022 йилнинг 31 декабр кунига қадар “**Буюртмачи**” га топширилиши шарт ҳисобланади. Курсатилган муддатда “**Пудратчи**” томонидан бажарилган ишлар топширилиши таъминланмаган тақдирда, бажарилган ишлар юзасидан “**Буюртмачи**” томонидан молиялаштирилиш масаласи қайта куриб чиқилади.

2.5. Бажарилган ишлар учун тўловлар “**Буюртмачи**” томонидан пул ўтказиш йўли билан амалга оширилади

### III. ТОМОНЛАРНИНГ ҲУҚУҚ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИ

“**Пудратчи**”нинг мажбуриятлари:

3.1. Мазкур шартномада илова қилинадиган бажариладиган ишлар жадвалига асосан биринчи аванс тўлови тушгандан бошлаб ишларни бажаришга киришади ва мазкур шартноманинги ишларни бажариш тўғрисидаги 1-иловасида кўрсатилган жадвал асосида белгиланган ойлarda ишларни кўрсатилган муддатларда бажариб топширади.

3.2. Барча ишларни тасдиқланган смета ҳужжатларига мувофиқ, мазкур шартномада назарда тутилган ҳажмда ва муддатларда бажариш ҳамда “**Буюртмачи**”га мазкур шартнома шартларига мувофиқ топширади.

Объектнинг ижро ҳужжатларини тўлиқ расмийлаштириш ва буюртмачига топшириш, қурилиш материалларининг мувофиқлик сертификати, ишлатилган қурилиш материаллари ва ускуналарнинг техник паспортини ва ҳисоб варақ фактуралар (юк хати)дан нусха тақдим этади.

3.3. “**Пудратчи**” мазкур шартнома бўйича барча ишларнинг ўз кучлари билан ва ёрдамчи пудратчилар томонидан зарур тарзда бажарилиши ҳамда объектнинг фойдаланишга тайёр ҳолда топширилиши учун “**Буюртмачи**” олдида тўлиқ мулкӣ жавоб беради. “**Пудратчи**” “**Буюртмачи**” олдида ёрдамчи пудратчи ўз мажбуриятларини бажармаганлиги ёки лозим даражада бажармаганлигининг оқибатлари учун ҳам жавобгар бўлади. “**Буюртмачи**” “**Пудратчи**” билан тузган шартномалар бузилиши билан боғлиқ талабларни ёрдамчи пудратчиларга қўймайди.

3.4. “**Пудратчи**” геодезия нукталарига, линиялар ва даражаларга нисбатан объектнинг тўғри ва зарур тарзда белгиланиши, шунингдек баландлик белгилари, ўлчамлари ва бўлик ўқларининг мувофиқлиги тўғри жойлашганлиги учун жавоб беради.

Агар ишларни бажариш жараёнида геодезия ишларида хатолар аниқланса, “**Пудратчи**” тегишли тузатишларни ўз ҳисобидан амалга оширади.

3.5. Агар беркитилган (ёпилиб кетадиган) ишлар “**Буюртмачи**”нинг тасдиғисиз бажарилган бўлса ёки у бу ҳақда хабардор қилинмаган бўлса, ёки кечикиб хабардор қилинган бўлса, у ҳолда унинг талаби бўйича “**Пудратчи**” “**Буюртмачи**”нинг кўрсатмасига мувофиқ беркитиладиган ишларнинг исталган қисмини ўз ҳисобидан очишга, сўнгра уни тиклашга мажбурдир.

3.6. Ишлар бошланган пайтдан бошлаб улар тугаллангунгача “**Пудратчи**” қурилиш монтаж ишларини бажарилишини юритиш дафтари (журнал)ни юритади. Дафтарда бутун ишларнинг бориши акс эттирилади.

“Пудратчи” дафтар (журнал)да “Буюртмачи” томонидан асосли равишда кўрсатилган камчиликларни 3 кун муддатда бартараф этиш чора-тадбирларини кўриш мажбуриятини ўз зиммасига олади.

3.7. Объект фойдаланишга топширилгунга қадар объектнинг тасодифий йўқ қилиниши ва шикастланишига “Пудратчи” тўлиқ жавобгар бўлади.

“Пудратчи”нинг ҳуқуқлари:

3.8. Бажариб бериладиган иш учун олинadиган аванс ҳақ тўланишини мазкур шартноманинг 2.2-бандига кўра, ишни бажариб топширгандан сўнг, мазкур шартноманинг 2.3-бандига кўра тўла ҳажмда ҳисоб китоб қилинишини талаб қилиш.

Бажариб берилган ишни қабул қилиб олиш асоссиз равишда рад этилиши натижасида етказилган зарарни қопланишини талаб қилиш.

3.8. Лойиха-смета ҳужжатларида бажарилиши кўзда тутилган иш ҳажмлари “Пудратчи” томонидан тўлиқ ва сифатли бажарилиб, айрим иш ҳажмлари ва харажатлари смета ҳужжатларида кўзда тутилган маблағлардан амалда иктисод қилинса, ушбу маблағни айрим харажатлар бўйича кўрилиши мумкин бўлган зарарни ва қўшимча бажарилиши лозим бўлган иш ҳажмлари харажатларини қоплаш учун объектнинг умумий қиймати доирасида асословчи ҳужжатлар асосида “Буюртмачи”ни хабардор қилган ҳолда йўналтирилиши мумкин.

3.8. “Пудратчи” зарур ҳолларда айрим иш турларини бажарилишида лойиха-смета ҳужжатларида белгиланган машина-механизмлар ўрнига, ўз имкониятлардан келиб чиққан ҳолда, ўриндош машина-механизмлардан фойдаланиши, белгиланган сифат ва технологик жараённинг бузилмаслигини кўрсатувчи сифат лабораторияси ва лойихачи ташкилотнинг тегишли ҳулосаси асосида амалга оширилиши мумкин.

3.9. Бажарилган ва молиялаштириш учун қабул қилинган иш ҳажмларида арифметик хато ва бошқа камчиликларга йўл қўйилганлиги аниқланганда, кейинги ойлarda бажарилган иш ҳажмлари тегишли ўзгартиришлар (корректировка) киритилган ҳолда расмийлаштирилади.

“Буюртмачи”нинг мажбуриятлари:

3.10. Тасдиқланган лойиха-смета ҳужжатлари асосида бажарилган ишларни меъёрий ҳужжатлар талаблари даражасида қабул қилиб олиш.

3.11. Бажарилган ишлар учун ҳақ тўланиши мазкур шартноманинг 2.2-бандига кўра, ишни бажариб топширгандан сўнг, мазкур шартноманинг 2.3-бандига кўра тўла ҳажмда ҳисоб китоб қилинади.

“Буюртмачи”нинг ҳуқуқлари:

3.12. “Пудратчи”дан амалдаги давлат стандартлари ва бошқа меъёрий ҳужжатлар билан таъминлашни талаб қилиш.

3.13. Камчиликларни бепул бартараф этилиши ёки камчиликларни бошқа шахс томонидан тўғриланиши харажатларини қопланишини талаб қилиш.

3.14. “Пудратчи”дан шартномада кўрсатилган ишларини лойиха ҳужжатлари асосида ишни сифатли бажарган ҳолда қабул қилиб олиш.

3.15. “Пудратчи” томонидан ишлатиладиган материаллар ва асбоб ускуналарни иш ҳужжатларига мувофиқлигини назорат қилиш.

3.16. Техник кузатувчи ишлар бажарилишининг ва шартноманинг бутун даври мобайнида ишларнинг барча турлари билан тўсиксиз танишиш ҳуқуқига эгадир.

3.17. Агар “Пудратчи” шартномани амал қилиш муддати давомида белгиланган объектни “Буюртмачи”га топширмаган тақдирда, “Буюртмачи”мазкур шартнома муддатлари тугагандан сўнг, бажарилган ишлар учун маблағ бериш мажбуриятини олмайди.

#### IV. ТОМОНЛАРНИНГ ЖАВОБГАРЛИГИ

4.1. Томонлардан бири шартнома мажбуриятини бажармаса ёки зарур даражада бажармаса мажбуриятни бажармаган томон иккинчи томонга етказилган зарарни тўлайди.

4.2. “Пудратчи” объектни ўз вақтида топширмаганлиги учун “Буюртмачи”га ҳар бир кечиктирилган кун учун шартнома мажбуриятлари бажарилмаган қисмининг 0,5 %и миқдорида пеня тўлайди. Тўланадиган пенянинг суммаси тўлаб берилган маблағнинг 50 %идан ошмаслиги керак.

4.3. Аниқланган камчилик ва нуқсонлар “Пудратчи” томонидан ўз вақтида бартараф қилинмаса, ёки ишлар умуман бажарилмаса, “Буюртмачи” тўловларни тўхтатиб, лозим даражада, ёки умуман бажарилмаган ишларнинг 20 % и миқдорида жарима ундирилишини талаб қилиш ҳуқуқига эга.

4.4. Бажарилган ишлар учун “Буюртмачи” томонидан ўз вақтида ҳақ тўланмаса, ҳар бир кечиктирилган кун учун кечиктирилган тўлов суммасининг 0,5 % миқдорида пеня тўлайди. Тўланадиган пеняларнинг умумий суммаси кечиктирилган тўловларнинг 50 % миқдоридан ортмаслиги керак.

4.5. Тўланадиган пеня ва жарималар шартнома мажбуриятларини бузган томон иккинчи томонга ана шу мажбуриятларни бажармаслик оқибатида етказган зарарларни қоплаш жавобгарлигидан озод этилмайди.

4.6. Ушбу шартномада кўзда тутилмаган жавобгарликлар Ўзбекистон Республикасининг 1998 йил 29 августдаги 670-1-сонли “Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг шартномавий ҳуқуқий базаси тўғрисида”ги Қонунининг 25-32 моддлари асосида белгиланади.

#### V. ЕНГИБ БЎЛМАЙДИГАН КУЧ (ФОРС МАЖОР) ХОЛАТЛАРИ

5.1. Ушбу шартнома бўйича мажбуриятларни тўлиқ ёки қисман бажарилмаслиги табиат ходисалари ва бошқа енгиб бўлмайдиган куч ҳолатлари натижасида келиб чиқса ва бу ҳолатлар шартнома шартларини бажарилишига бевосита таъсир этса томонларнинг жавобгарликдан озод этилиши Қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда кўриб чиқилади.

5.2 “ Пудратчи ” нинг мазкур шартномани бажариши учун бошқа шартлашувчи шериклари, ёрдамчи пудратчилар томонидан мажбуриятларнинг бузилиши, мажбуриятни бажариш учун зарур товарларнинг бозорда йўқлиги. “ Пудратчи ” да зарур маблағларнинг бўлмаганлиги форс-мажор ҳолатларига кирмайди.

## VI. КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШ

6.1 Ушбу Шартнома бўйича ўз мажбуриятларини бажараётганда Томонлар, уларнинг шериклари, ишчилари ёки воситачилари ҳар қандай ноқонуний устунликларга ёки бошқа ноқонуний мақсадларга эришиш учун бевосита ёки билвосита пул маблағлари ёки қимматликларни тўлашни амалга оширмайди.

6.2 Ушбу Шартнома мажбуриятларини бажараётганда Томонлар, уларнинг шериклари, ишчилари ёки воситачилари пора бериш/олиш, тижорий пора олиш, шунингдек амалдаги қонунчилик ва халқаро ҳужжатларнинг талабларини бузадиган ҳаракатларни амалга оширмайдилар. Жиноий йўл билан топилган даромадларни легаллаштиришга қарши курашишга оид халқаро ҳужжатлар талабларини бузилиши каби ҳаракатларни амалга оширмайди.

6.3 Ушбу Шартнома Томонларининг ҳар бири бошқа Томоннинг ходимларини ҳар қандай тарзда рағбатлантиришдан, шу жумладан пул маблағлари, совғалар бериш, уларга иш (хизматлар)ни бепул бажариши ва ушбу бандда кўрсатилмаган бошқа усуллар билан ходимнинг рағбатлантирувчи томон фойдасига ҳар қандай ҳаракатларни содир этишдан бош тортади. Ходимнинг уни рағбатлантирувчи томон фойдасига амалга оширган ҳаракатлари деганда қуйидагилар тушунилади: - бошқа контрагентлар билан таққослаганда асоссиз устунликларни тақдим этиш; - ҳар қандай кафолатлар билан таъминлаш; - амалдаги тартиб-таомилларни тезлаштириш; - ходим томонидан ўз вазифалари доирасида амалга ошириладиган, аммо Томонлар ўртасидаги муносабатларнинг шаффофлиги ва очиклиги тамойилларига зид бўлган бошқа ҳаракатлар.

6.4 Агар Томонлардан бири мазкур шартноманинг 2-иловасида келтирилган коррупцияга қарши курашиш шартларини бузган ёки бузиши мумкин деб гумон қилса, иккинчи Томонни ёзма равишда хабардор қилишга мажбур. Ёзма хабарномадан сўнг, тегишли Томон ушбу Шартнома бўйича мажбуриятларнинг бажарилишини бузилиш содир бўлмаганлиги ёки содир бўлмаслиги тасдиқлангунга қадар тўхтатиб туришга ҳақли. Ушбу тасдиқ ёзма хабарнома юборилган кундан бошлаб 5 (беш) иш куни ичида юборилиши керак.

6.5 Ёзма хабарномада Томон контрагент, унинг шериклари, ишчилари ёки воситачилари томонидан ушбу шартлар ва қоидаларнинг бузилганлиги ёки бузилиши мумкинлигини ишончли тарзда тасдиқлайдиган ёки асослаши мумкин бўлган фактларга таяниши ёки тегишли материалларни тақдим этишга мажбур, яъни пора олиш/бериш, тижорий пора олиш, шунингдек амалдаги қонунчилик ва жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга қарши кураш бўйича халқаро ҳужжатлар талабларини бузадиган ҳаракатлар асослантирилиши лозим. 6.6 Шартноманинг тарафлари коррупциянинг олдини олиш чораларини кўриш тартибтаомилларини тан олади ва уларга риоя этилишини назорат қилади. Бунда Томонлар коррупциявий фаолият билан шугулланиши мумкин бўлган контрагентлар билан ишбилармонлик муносабатлари хавфини минималлаштириш, шунингдек, коррупциянинг олдини олиш мақсадида бир-бирига ўзаро ёрдам бериш учун оқилона ҳаракатларни амалга оширадилар. Шунингдек, Томонлар коррупциявий фаолиятга Томонларнинг иштироки хавфини олдини олиш мақсадида текширувлар ўтказиш тартибтаомилларини амалга оширилишини таъминлайдилар.

6.7 Томонлар ўзларининг содир этилиши мумкин бўлган ноқонуний хатти-ҳаракатлари ва ушбу Шартноманинг коррупцияга қарши курашиш шартларининг бузилиши контрагентнинг ишончилиги рейтингини пасайтиришидан тортиб ушбу шартноманинг бекор қилинишигача бўлган ноҳуш оқибатларга олиб келиши мумкинлигини тан олади.

6.8 Томонлар махфийлик тамойилларига риоя қилган ҳолда ушбу Шартномани бажариш доирасида келтирилган фактлар бўйича тегишли тартиб-таомиллар амалга оширилишини ва амалий қийинчиликларни бартараф этиш ва юзага келиши мумкин бўлган низоли вазиятларнинг олдини олиш бўйича самарали чораларни қўллашни кафолатлайдилар.

6.9 Томонлар ушбу Шартноманинг коррупцияга қарши курашиш шартларини бажариш бўйича тўлиқ махфийликни, шунингдек, талаблар бузилганлиги фактлари тўғрисида хабар берган Томон учун ҳам, шунингдек, хабар берган Томоннинг ходимлари учун ҳам салбий оқибатлар келтирмаслигини кафолатлайдилар.

## VII. ШАРТНОМАНИ ЎЗГАРТИРИШ, БЕКОР ҚИЛИШ ВА НИЗОЛАРНИ ХАЛ ҚИЛИШ ТАРТИБИ

7.1. Мазкур шартнома белгиланган шаклда томонларнинг ўзаро келишувига мувофик ўзгартирилиши ва бекор қилиниши мумкин.

7.2. Шартнома асосида белгиланган маблағни молиялаштирилиши билан боғлиқ муаммолар келиб чиққан тақдирда “Буюртмачи” ва “Пудратчи” ўзаро келишув асосида шартномага ўзгартириш киритиши мумкинлиги маълумот учун қабул қилинади.

7.3. Мазкур шартнома бўйича юзага келиши мумкин бўлган низо ва келишмовчиликлар ўзаро муҳокама йўллари билан хал этилади. Агарда ўзаро муҳокама йўли билан хал этиш имкони бўлмаса, қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда Гулистон туманлараро Иқтисодий суди орқали хал этилади.

#### VIII. ШАРТНОМАНИ АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТЛАРИ

8.1. Шартнома томонлар имзолаб, ҳудудий Ғазначилик тизимидан (Узазбо дастури) рўйхатдан ўтган кундан кучга кириб, 2022 йил 31 декабргача амал қилади.

8.2. Объектнинг жорий таъмирлаш бўйича маблағ Республика ёки маҳаллий бюджетдан “Буюртмачи” нинг махсус ҳисоб рақамига 2022 йил 31 декабрь кунига қадар ажратилмаган тақдирда мазкур шартноманинг амал қилиш муддати қайта кўриб чиқилади.

8.3. Шартнома 2 нусхада гузилиб, иккала нусхаси ҳам ҳуқуқий жиҳатдан тенг кучга эга.

#### IX. ТОМОНЛАРНИНГ РЕКВИЗИТЛАРИ

##### “БУЮРТМАЧИ”

“Гулистон шаҳар ободонлаштириш  
бошқармаси”

Гулистон ш. Ал.Хоразмий кучаси 42а-уй.

Тел/факс: 225 15 74

ш/х: 100022860244017045201110007

Марказий банк Тошкент ш

СТИР: 205817484. МФО 00014



Бошлик

С. Гаипов

##### “БАЖАРУВЧИ”

ООО ОУБЕК МАХ КРЕДО МИКРО

Гулистон ш. Навоий шох 37-уй

Гулистон ш Микрокредит банк

Х/Р: 20208000705355329001

МФО 00366 ИНН 308 267 104



Раҳбар:

З.Розиков





Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida  
**GUVOHNOMA**

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"OYBEK MAX KREDO MIKRO" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli kiritilgan holdagi to'liq nomi)

"OYBEK MAX KREDO MIKRO" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

05.03.2021

960915

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

308267104

Tashkiliy-huquqiy  
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Navoiy shoh ko'chasi, 37-uy,

Guvohnoma:

Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, DAVLAT XIZMATLARI  
MARKAZI

tomonidan  
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organing to'liq nomi)



**Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 121265 на приобретение Сирдарё вилояти Гулистон шаҳар “Улуғ йўл” МФЙ ҳудудидаги Нуртепа кўчасини жорий таъмирлаш**

Способ проведения электронный

Дата 27.07.2022

Время рассмотрения 27.07.2022 10:37

Конкурсная комиссия Гулистон шаҳар Ободонлаштириш, кўкаламзорлаштириш ва ирригация бошкармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

<b>Председатель комиссии</b>	UMARKULOV ZAFAR TAXIROVICH	Ишдан кетган	Ишдан кетган
<b>Секретарь комиссии</b>	QODIROV XUSNIDDIN IGAMOVICH	Секретарь комиссии	Секретарь комиссии
<b>Член комиссии</b>	SHERMATOV ERKINJON JUMANAZAROVICH	Член комиссии	Член комиссии
<b>Член комиссии</b>	GAIPOV SARDOR TUYGUNOVICH	Бошлиқ	Комиссия раиси
<b>Член комиссии</b>	KADIROV TAIRJON ABDUVALIYEVICH	Член комиссии	Член комиссии
<b>Член комиссии</b>	KUNNAZAROV G'OIYIBBOY SUYUNQULOVICH	Член комиссии	Член комиссии

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 27.07.2022 года № лота 121265.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.техничко-квалификационной части: 90.00 / Весовой коэф. ценовой части: 10.00)

Мин. балл: 75

Предмет закупки:

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	<b>Услуга по текущему ремонту автомобильных дорог</b>
Подробное описание	Сирдарё вилояти Гулистон шаҳар “Улуғ йўл” МФЙ ҳудудидаги Нуртепа кўчасини жорий таъмирлаш
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	168 281 243.00
Стартовая сумма	168 281 243.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Курилиш майдонини кўрганлик ва лойиҳани ўрганганлик тўғрисида маълумотнома.

Тип: Текстовое значение

Описание: Курилиш майдонини кўрганлиги ва ўрганиб чиқилганлиги (буюртмачи масъул мутахассиси имзоси билан тасдиқланган)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
• <b>ООО ОУБЕК MAX KREDO MIKRO</b>	20	Курилиш майдонини кўрганлик ва лойиҳани ўрганганлик тўғрисида маълумотнома.	20	Экспертная		
<b>"PMK-128" mas'uliyati cheklangan jamiyati</b>	20	20	10	Экспертная		

#### Критерий №2 Машина ва механизмлар рўйхати

Тип: Текстовое значение

Описание: Лойиҳани бажариш учун зарур бўлган 5 та дан кам бўлмаган? Кўпи билан 20 йил олдин ишлаб чиқарилган шахсий (ёки лизинг шартномаси асосида) курилиш машина ва механизмларини мавжудлиги (ижара шартнома асосидаги курилиш техникаларининг баллари 30% камайтирилади). Лойиҳани бажариш учун зарур бўлган 10 бирликдан кам бўлмаган кичик механизация воситаларини мавжудлиги

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ООО ОУБЕК MAX KREDO MIKRO</b>	20	20	20	Экспертная		
<b>"PMK-128" mas'uliyati cheklangan jamiyati</b>	20	20	20	Экспертная		

#### Критерий №3 Танлов иштирокчисининг молиявий аҳволи

Тип: Текстовое значение

Описание: "Иштирокчининг банкидан картатека йуклиги хақида маълумот, Солик органларида солиқдан қарзи йуклиги тугрисида тасдиқланган маълумот, Асосий воситаларнинг қолдиқ қиймати 100 млн. сўм ва ундан кўп Муддати ўтган кредиторлик қарздорлиги мавжуд эмаслиги ўтган йилда 20 млн.сўм фойдаси (солиқ тўлангунга қадар) мавжудлиги Иш ҳақи фонди 20 млн. сўм Тўловга қодирлик ёки қоплаш коэффиценти 1,25 ва ундан кўп Тўловга қодирлик ёки қоплаш коэффиценти Объектнинг буюртмачи белгиланган бошланғич нархининг 20 %гача миқдоридаги айланма маблағлар мавжудлиги (хизмат қилувчи банк томонидан тасдиқланган айланма мабла

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ООО ОУБЕК MAX KREDO MIKRO</b>	20	20	15	Экспертная		
<b>"PMK-128" mas'uliyati cheklangan jamiyati</b>	20	20	20	Экспертная		

#### Критерий №4 Танлов иштирокчиси ҳақида умумий маълумотлар

Тип: Текстовое значение

Описание: Танловда иштирок этувчи ташкилот хақида умумий маълумот гувоҳномаси, СОҲАВИЙ ҚУРИЛИШ-ПУДРАТ ТАШКИЛОТЛАРИ РЕЙТИНГИда автомобил йуллари ва куприкларда рейтинг курсаткичи мавжудлиги. Иш стажи 3 йилдан кам бўлмаган олий маълумотли қурилиш мутахассислигига эга бўлиши мажбурий раҳбарлардан 1 киши мавжудлиги. 5 йил иш стажига эга 2 кишидан кам бўлмаган дипломга эга инженер-техник ходимларни мавжудлиги. (участка бошликлари ва мастерлар). Ишлаб-чиқариш техника бўлимида 5 йил иш стажига эга дипломи 1 та

мутахассисни мавжудлиги. Доимий равишда ишловчи 10 тадан кам бўлмаган малакавий ишчилар мавжудлиги. Ходим

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО ОУБЕК МАХ КРЕДО МИКРО	20	умумий маълумот	20	Экспертная		
"PMK-128" mas'uliyati cheklangan jamiyati	20	20	20	Экспертная		

Критерий №5 Танловдаги объектга ўхшаш объектларда охириги 3 йиллик иш тажрибаси

Тип: Текстовое значение

Описание: "Охириги 3 йил давомида Танловдагига ўхшаш ишларни ўз кучи билан бажариш: йилига N (N- Буюртмачи бошлангич нархнинг 50%) сўм ва ундан кўп. Танлов савдодагига ўхшаш профил бўйича охириги йили ўз кучи билан бажариш."

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО ОУБЕК МАХ КРЕДО МИКРО	20	3 йиллик иш тажриба	20	Экспертная		
"PMK-128" mas'uliyati cheklangan jamiyati	20	20	20	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
"PMK-128" mas'uliyati cheklangan jamiyati	168 281 243 00	167 281 243 00 UZS	167 281 243 00	00.00	167 281 243 00	26.07.2022 18:54:16	09.89
ООО ОУБЕК МАХ КРЕДО МИКРО	168 281 243 00	165 450 900 00 UZS	165 450 900 00	00.00	165 450 900 00	26.07.2022 18:50:37	10.00

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
"PMK-128" mas'uliyati cheklangan jamiyati	81	9.89	90.89
ООО ОУБЕК МАХ КРЕДО МИКРО	85.5	10	95.5

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 121265 от 27.07.2022 года на приобретение Сирдарё вилояти Гулистон шаҳар "Улуғ йўл" МФЙ худудидаги Нуртепа кўчасини жорий таъмирлаш определила победителем:

ООО ОУБЕК МАХ КРЕДО МИКРО  
308267104

и резервный исполнитель: "PMK-128" mas'uliyati cheklangan jamiyati (200323462)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	UMARKULOV ZAFAR TAXIROVICH	Согласен	
Член комиссии	KADIROV TAIRJON ABDUVALIYEVICH	Согласен	
Член комиссии	SHERMATOV ERKINJON JUMANAZAROVICH	Согласен	
Член комиссии	GAIROV SARDOR TUYGUNOVICH	Согласен	
Член комиссии	KUNNAZAROV G'OIYIBBOY SUYUNQULOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

График производство работ

Объекту: Сирдарё вилояти Гулистон шаҳар “Улуғ йўл” МФЙ худудидаги Нуртепа кўчасини жорий таъмирлаш

Пудратчи ташкилот: ООО ОУБЕК МАХ КРЕДО МІКРО

Шартнома киймати 165 450 900 сум

№	Наименование работ	Всего Стоимость	2022- год	
			сентябр	
1	Сирдарё вилояти Гулистон шаҳар “Улуғ йўл” МФЙ худудидаги Нуртепа кўчасини жорий таъмирлаш	143 870 348	143 870 348	
	ККС	21 580 552	21 580 552	
	<b>Всего</b>	<b>165 450 900</b>	<b>165 450 900</b>	



Заказчик



Молиялаштириш жадвали

Объекту: Сирдарё вилояти Гулистон шаҳар “Улуғ йўл” МФЙ ҳудудидаги Нуртепа кўчасини жорий таъмирлаш

Пудратчи ташкилот: ООО ОУБЕК МАХ КРЕДО МІКРО

Шартнома киймати 165 450 900 сўм

№	Иш тури	Жами	2022- йил
1	Аванс 30%	49 635 270	сентябр 49 635 270
2	Текущие финансирование 70%	115 815 630	115 815 630
	<b>Всего</b>	<b>165 450 900</b>	<b>165 450 900</b>



Буюртмачи

*[Handwritten signature]*



*[Handwritten signature]*

"Тасдиқлайман"

Гулистон шаҳар  
ободонлаштириш бошқармаси бошлиғи  
С.Гаипов



**ТАНЛАШ БАЁННОМАСИ**

"29"- июль 2022- йил

Кун тартибидаги асосий масала Товар хом ашё биржасига 27.07.2022- йил лот рақами № 121265-сонли 168 281 243 сўмлик Сирдарё вилояти Гулистон шаҳар "Улуғ йўл" МФЙ ҳудудидаги Нуртепа кўчасини жорий таъмирлаш буйича энг яхши таклифларни танлаб олиш эълонига асосан электрон тарзда юкланган танлаш баённомасидан сўнг ҳеч қандаш таклиф, эътирозлар келиб тушмаганлиги ва қолиб бўлган таклиф берувчи билан шартнома тузиш .

№	Иш, хизмат, маҳсулот номи	"PMK-128" mas'uliyati cheklangan jamiyati				ООО ОУБЕК МАХ КРЕДО МИКРО		
		Улчов бирлиги	сон	Нархи	Суммаси	сон	Нархи	Суммаси
1	Сирдарё вилояти Гулистон шаҳар "Улуғ йўл" МФЙ ҳудудидаги Нуртепа кўчасини жорий таъмирлаш	СУМ	1	167 281 243	167 281 243	1	165 450 900	165450900
ЖАМИ					167281243			165450900

Юқоридаги жадвалдан келиб чиқиб комиссия

**ҚАРОР ҚИЛАДИ**

1. Товар хом ашё биржасига 27.07.2022- йил лот рақами № 121265-сонли 168 281 243 сўмлик Сирдарё вилояти Гулистон шаҳар "Улуғ йўл" МФЙ ҳудудидаги Нуртепа кўчасини жорий таъмирлаш эълонига асосан электрон тарзда юкланган танлаш баённомасидан сўнг ҳеч қандаш таклиф, эътирозлар келиб тушмаганлиги сабабли ООО ОУБЕК МАХ КРЕДО МИКРО билан 165 450 900 сўмга шартнома тузилсин.

2. Ушбу қарор ижросини таъминлаш бош ҳисобчи Д.Мухаммадиев зиммасига юклатилсин.

Комиссия раиси:

Котиб

Т.Кодиров  
Д.Мухаммадиев  
Э.Шерматов  
Г.Кунназаров  
Х.Кодиров

Гулистон шаҳар Ободонлаштириш бошқармаси  
**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

№ QG8808654546

**1.Loyihaning turi:**

Shartnona

**2. Loyihaning nomi:**

Shartnoma-26-sonli

**3.Loyihaning mazmuni:**

Guliston shahar obodonlashtirish boshqarmasi( Buyurtmachi) hamda " OYBEK MAX KREDO MIKRO " ( Pudratchi) MCHJ o'rtasida Pudratchi Sirdaryo viloyati Guliston shahar "Ulug' yo'l" MFY hududidagi Nurtepa ko'chasini joriy ta'mirlash ishlarini bajarish majburiyatini olish, "Buyurtmachi" esa "Pudratchi"ga bajarilishi lozim bo'lgan ishlar uchun tegishli me'yoriy hujjatlar va tashkilot normativlari asosida tuzilgan loyixa-smeta hujjatlarida ko'zda tutilgan mablag'ni to'lovini amalga oshirish majburiyatini amalga oshirish to'g'risidagi, shartnomaning umumiy pul miqdori joriy narxlarda 165 450 900 (Bir yuz oltmish besh million turt yuz ellik ming to'qqiz yuz) so'mni tashkil etuvchi shartnoma tuzish to'g'risida .

**4. Loyiha ishlab chiqaruvchi va kiritilgan sana haqida ma'lumot:**

Guliston shahar Obodonlashtirish boshqarmasi. 2022-yilning 29-iyul kuni yuridik ekspertizaga taqdim etilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqarilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**Bosh yuriskonsult**



**F.Muhammadiyeva**  
**29.07.2022 yil**

770 ugh d g u r a

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI

**AVTOMOBIL YO'LLARI SOHASIDA OCHIQLIK STANDARTLARINI JORIY ETISH  
VA SOHADA JAMOATCHILIK NAZORATINI KUCHAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI  
TO'G'RSIDA**

Avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash sohasida mutlaqo yangi ochiqlik standartlarini joriy etish va shaffoflikni ta'minlash hamda sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi (keyingi o'rinlarda — Avtomobil yo'llari qo'mitasi) tomonidan avtomobil yo'llari sohasida shaffoflik va jamoatchilik oldidagi hisobdorlik standartlarini joriy qilish bo'yicha "Shaffof yo'l" onlayn axborot platformasi (keyingi o'rinlarda — "Shaffof yo'l" platformasi) ishlab chiqilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Avtomobil yo'llari qo'mitasi, Moliya vazirligi va Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda avtomobil yo'llari sohasiga tegishli ma'lumotlar bazasini o'z ichiga olgan "Shaffof yo'l" platformasini 2022-yil 1-iyuldan boshlab test rejimida ishga tushirsin.

3. "Shaffof yo'l" onlayn axborot platformasida avtomobil yo'llari sohasida ochiq axborotlar shaklida joylashtirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar ro'yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Belgilansinki:

a) quyidagilar:

avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va saqlash ishlari uchun yo'naltirilayotgan mablag'larning harakati to'g'risidagi ma'lumotlar — Moliya vazirligi tomonidan; avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash obyektlarida olib borilayotgan yo'l qurilish ishlari haqidagi, shu jumladan, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari bilan bog'liq ma'lumotlar — Avtomobil yo'llari qo'mitasi tomonidan;

mahalliy hokimliklar buyurtmachiligidagi ichki xo'jalik yo'llari, shaharlar va boshqa aholi punktlaridagi ko'chalar to'g'risidagi ma'lumotlar — Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan shakllantiriladi hamda "Shaffof yo'l" platformasiga kiritiladi;

b) "Shaffof yo'l" platformasining alohida sahifasi orqali aholining yo'llar nosozligi, shuningdek, yo'llarda va yo'l bo'yida xavfsiz harakatlanish uchun yuzaga kelgan favqulodda texnik muammolar (svetoforlar va yo'l belgilar o'rnatilmaganligi yoki ularning shikastlanganligi, tabiiy ofatlar natijasida yuzaga keladigan hodisalar ortidan hosil bo'ladigan oqibatlar) haqida foto- va videomurojaatlar — jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladi;

v) "Shaffof yo'l" platformasida joylashtiriladigan ma'lumotlar bazasi Avtomobil yo'llari qo'mitasi rasmiy veb-sayti hamda manfaatdor vazirlik va idoralarga tegishli ma'lumotlar bazalari bilan integratsiyalashgan holda yuritiladi.

5. Avtomobil yo'llari qo'mitasi:

Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi bilan birgalikda ilg'or xorijiy tajribaga asoslangan holda 2022-yil 1-mayga qadar avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash obyektlarining interaktiv onlayn xaritasi-sxemasini (keyingi o'rinda — xarita) ishlab chiqsin va "Shaffof yo'l" platformasiga joylashtirsin;

2023-yildan boshlab va keyinchalik har yili Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda keyingi yilda qurilishi, rekonstruksiya qilinishi, ta'mirlanishi nazarda tutilgan barcha toifadagi yo'l uchastkalarini xaritaga joylashtirish amaliyotini yo'lga qo'ysin.

Bunda, xaritadagi har bir obyekt bo'yicha texnik-pasport, foto-video materiallar yuritilishi va aks ettirilishi inobatga olinsin.

6. Moliya vazirligining "Ochiq budjet" axborot portali (keyingi o'rinlarda — "Ochiq budjet" portali) orqali tuman (shahar)lar budjetlari parametrlarida hududiy ichki yo'llarini ta'mirlash uchun

ajratilgan mablag'larni jamoatchilik fikri asosida shakllangan ichki xo'jalik yo'llarni ta'mirlashga yo'naltirish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

7. Tuman (shahar)lar mahalliy budjetlari parametrlarida hududiy ichki xo'jalik yo'llarni ta'mirlash uchun ajratilgan mablag'larni jamoatchilik fikri asosida aniqlangan ichki xo'jalik yo'llarini ta'mirlashga yo'naltirish tartibi to'g'risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Moliya vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Avtomobil yo'llari qo'mitasi bilan birgalikda 2022-yil 1-martga qadar:

ichki xo'jalik yo'llarining joylashgan manzili (geopozitsiyasi), to'liq nomi, uzunligi, holati (asfaltlangan, ta'mirtalab) va boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olgan Ichki xo'jalik yo'llari reyestrini shakllantirsin;

Ichki xo'jalik yo'llari reyestridan geoma'lumot asosida fuqarolar tomonidan tegishli hududdagi ichki xo'jalik yo'lini tanlash orqali o'z taklifini qoldirish imkoniyatini yaratsin;

“Ochiq budjet” portalining “Shaffof yo'l” platformasi bilan integratsiya qilinishini hamda “Ochiq budjet” portalining mobil ilovasi ishga tushirilishini ta'minlasin.

Bunda, fuqarolar tomonidan ichki xo'jalik yo'llarini real vaqtdagi joylashgan joyi (geolokatsiya) asosida qayd etish orqali ichki xo'jalik yo'llari to'g'risida xabar berish imkoniyati nazarda tutilsin.

9. Transport vazirligi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda “Shaffof yo'l” platformasi ishini test rejimida tashkil etish natijasida yuzaga kelgan muammo va mavjud kamchiliklarni bartaraf etsin, zaruratga ko'ra, platformani takomillashtirishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihagini belgilangan tartibda ishlab chiqsin hamda 2023-yil 1-yanvardan boshlab “Shaffof yo'l” platformasi to'liq ishga tushirilishini ta'minlasin.

10. Transport vazirligi, Moliya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ikki oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

11. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Transport vazirligi bilan birgalikda ushbu qaror maqsadi va vazifalari ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta'minlasin.

12. Avtomobil yo'llari qo'mitasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda bir oy muddatda ichki xo'jalik yo'llarni sement-beton qoplamaga o'tkazgan holda ta'mirlashda:

sement-beton qoplamali yo'llarni qurishga ixtisoslashgan tajribali korxonalar faoliyatini o'rganish asosida ularning texnologiyalarini tatbiq etish va maxsus uskunalarni xarid qilish;

yirik sement-beton ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan kooperatsion aloqalarni o'rnatish orqali yo'llarni ta'mirlash tannarxini tushirishni ta'minlovchi tadbirlar amalga oshirilishini nazarda tutuvchi “yo'l xaritalari”ni ishlab chiqsin.

13. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari A.J. Ramatov va O'zbekiston Respublikasi transport vaziri I.R. Maxkamov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,

2022-yil 2-fevral,

49-son

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-fevraldagi 49-son qaroriga

1-ILOVA

**“Shaffof yo'l” onlayn axborot platformasida avtomobil yo'llari sohasida ochiq axborotlar shaklida joylashtirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar**

RO'YXATI

T/r	Ma'lumot turi	Taqdim etish va	Joylashtirish uchun mas'ul vazirlik va idoralar
-----	---------------	-----------------	---

		yangilash muddati	
1.	Moliya vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llarini rivojlantirish maqsadli jamg'armasiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari moliya bosh boshqarmalari huzuridagi Avtomobil yo'llarini rivojlantirish hududiy maqsadli jamg'armalariga respublika budjetidan har yili ajratiladigan maqsadli mablag'lar.	Real vaqt rejimida	Moliya vazirligi
2.	Avtomobil yo'llari sohasiga ajratiladigan xalqaro moliya institutlari mablag'lari.	Real vaqt rejimida	Moliya vazirligi
3.	Avtomobil yo'llari sohasi uchun O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi ajratmalari.	Real vaqt rejimida	Moliya vazirligi, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
4.	Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida joriy ta'mirlash va saqlash ishlarini moliyalashtirish uchun har yili ajratiladigan maqsadli mablag'lar.	Har chorakda	Moliya vazirligi, Avtomobil yo'llari qo'mitasi
5.	Ichki xo'jalik yo'llari va shaharlar, boshqa aholi punktlari ko'chalar uchun mahalliy vakillik hokimiyati organlari tomonidan joriy etiladigan yig'imlardan tushumlar.	Har chorakda	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
6.	Avtomobil yo'llari va ko'chalar bo'ylab avtomobil saqlash joylaridan foydalanganlik uchun to'lovlardan kelib tushadigan mablag'lar.	Har chorakda	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
7.	Transport vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazish uchun yig'imning baza $\diamond$ iy stavkasiga qo'shimcha koeffitsiyentlarni qo'llashdan tushadigan mablag'lar.	Har chorakda	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
8.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari moliya bosh boshqarmalari huzuridagi Avtomobil yo'llarini rivojlantirish hududiy maqsadli jamg'armalariga Moliya vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llarini rivojlantirish maqsadli jamg'armasidan amalga oshiriladigan transfertlar.	Har chorakda	Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
9.	Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari yo'l bo'yida joylashgan yer uchastkalarida tashqi reklama obyektlari (konstruksiyalari) qurish uchun elektron auksionlar yakunlari bo'yicha huquq taqdim etishdan tushadigan mablag'lar, shuningdek, tashqi reklamani o'rnatilgan obyektlari (konstruksiyalari) uchun oylik to'lovlar.	Har chorakda	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Avtomobil yo'llari qo'mitasi

10.	Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarining yo'l bo'yida joylashgan yer uchastkalarida ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, savdo, servis obyektlari, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining boshqa ob'ektlarini joylashtirish va qurish uchun mazkur yer uchastkalaridan foydalanish huquqini realizatsiya qilishdan tushadigan mablag'lar.	Har chorakda	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
11.	Avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash obyektlarida olib borilayotgan yo'l qurilish ishlari hamda obyektlar bo'yicha belgilangan tartibda tender savdolari o'tkazish natijalari haqida ma'lumotlar.	Doimiy	Avtomobil yo'llari qo'mitasi
12.	Viloyat, shahar va tumanlar kesimida tegishliligi bo'yicha, obyektlarda amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlar (yo'llarni loyihalash, qurish, ta'mirlash va saqlash ishlari xarajatlar smetasi).	Har chorakda	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
13.	Suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi idoraviy yo'llar va ko'priklar holati, ularni qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va saqlash ishlari to'g'risida ma'lumotlar.	Har chorakda	Suv xo'jaligi vazirligi
14.	Suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi idoraviy yo'llar va ko'priklar holati, ularni qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va saqlash ishlari uchun ajratilgan mablag'lar to'g'risida ma'lumotlar.	Har chorakda	Moliya vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi
15.	Normativ-huquqiy hujjatlar bilan tasdiqlangan avtomobil yo'llari sohasini rivojlantirishga oid "yo'l xaritalari", davlat va investitsiya dasturlari ijrosi bo'yicha ma'lumotlar.	Real vaqt rejimida	Transport vazirligi, Avtomobil yo'llari qo'mitasi
16.	Avtomobil yo'llarini, shu jumladan, ichki xo'jalik yo'llari va shaharlar, boshqa aholi punktlari ko'chalarini o'zboshimchalik bilan qazish, ularda sun'iy notekisliklar va to'siqlar yaratish, avtomobil yo'lida ishlarni amalga oshirish uchun berilgan ruxsatnomalar to'g'risida ma'lumotlar.	Real vaqt rejimida	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
17.	Avtomobil yo'llarini, shu jumladan, ichki xo'jalik yo'llari va shaharlar, boshqa aholi punktlari ko'chalarini o'zboshimchalik bilan qazish, ularda sun'iy notekisliklar va to'siqlar yaratish, avtomobil yo'lida ishlarni amalga oshirish uchun berilgan ruxsatnoma talablarini bajarmaslik, shuningdek, yo'llarni saqlash qoidalarini buzish holatlari bo'yicha ma'lumotlar.	Real vaqt rejimida	Transport vazirligi huzuridagi Yo'l qurilish ishlari sifatini nazorat qilish inspeksiyasi

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-fevraldagi 49-son qaroriga  
2-ILOVA

**Tuman (shahar)lar mahalliy budjetlari parametrlarida hududiy ichki xo'jalik yo'llarni ta'mirlash uchun ajratilgan mablag'larni jamoatchilik fikri asosida aniqlangan ichki xo'jalik yo'llarni ta'mirlashga yo'naltirish tartibi to'g'risida  
NIZOM**

## 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom tuman (shahar)lar mahalliy budjetlari parametrlarida hududiy ichki xo'jalik yo'llarni ta'mirlash uchun ajratilgan mablag'larni jamoatchilik fikri asosida aniqlangan ichki xo'jalik yo'llarni ta'mirlashga yo'naltirish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**ichki xo'jalik yo'llar reyestri** — respublika bo'yicha barcha shaharlar va boshqa aholi punktlari ko'chalari, xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llari, xo'jalik avtomobil yo'llarini (keyingi o'rinlarda — ichki yo'llar) to'liq ro'yxatini o'z ichiga olgan ma'lumotlar bazasi;

**o'rtacha narx** — bir kvadrat metrlik ichki yo'lni ta'mirlash uchun talab etiladigan xarajatlarning o'rtacha qiymati.

3. Tuman (shahar) mahalliy budjeti parametrlarida hududiy ichki yo'llarni ta'mirlash uchun ajratilgan mablag'larning kamida 50 foizi "Ochiq budjet" axborot portali (keyingi o'rinlarda — axborot portali) orqali bildirilgan jamoatchilik fikri asosida aniqlangan ichki yo'llarni ta'mirlash tadbirlarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligi moliya bosh boshqarmalari tomonidan har yili 15-dekabr sanasiga qadar hisobot yili davomida amalga oshirilgan ichki yo'llarni ta'mirlash uchun sarflangan mablag'lar asosida o'rtacha narx shakllantiriladi va axborot portaliga kiritiladi.

5. Har bir tuman (shahar)da tuman (shahar) mahalliy budjetlari parametrlarida hududiy ichki yo'llarni ta'mirlash uchun ajratilgan mablag'lar miqdori hamda hududlar bo'yicha aniqlangan o'rtacha narx tuman (shahar) hokimliklari tomonidan axborot portalida e'lon qilinadi.

6. Axborot portali avtomatik ravishda o'rtacha narx va tuman (shahar) mahalliy budjeti parametrlaridan kelib chiqib, har bir tuman (shahar) bo'yicha ta'mirlanadigan ichki yo'llarning umumiy hajmini aniqlaydi.

## 2-bob. Axborot portali orqali bildirilgan jamoatchilik fikri asosida ichki yo'llarni ta'mirlashga doir takliflarni shakllantirish tartibi

7. Ichki yo'llarini ta'mirlashga doir takliflar axborot portali orqali keng jamoatchilik va bevosita fuqarolar tomonidan bildirilgan fikrlar asosida shakllantiriladi.

8. Jamoatchilik fikri asosida ichki yo'llarni ta'mirlashda takliflarni qabul qilib olish har yili 10-yanvarga qadar, bildirilgan takliflar orasidan g'olib takliflarni ovoz berish yo'li bilan aniqlab olish joriy yilning 31-yanvarga qadar amalga oshiriladi.

9. Axborot portali orqali takliflarni yuborish hamda ovoz berish jarayonida voyaga yetgan fuqarolar ishtirok etishlari mumkin.

10. Jamoatchilik fikri asosida ichki yo'llarni ta'mirlash uchun tuman (shahar) mahalliy budjeti mablag'larini yo'naltirish ushbu Nizomga ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

11. Fuqarolar har yili ichki yo'llarni ta'mirlashga doir faqat bitta taklifni kiritishi hamda bitta taklifga ovoz berishi mumkin. Fuqarolar o'zlari tomonidan kiritilgan taklifga ovoz berishi taqiqlanadi.

12. Ichki yo'llarni ta'mirlashga doir takliflar kiritish fuqarolar tomonidan axborot portalida taqdim etilgan Ichki yo'llar reyestridagi tegishli ichki yo'llardan birini tanlash orqali amalga oshiriladi.

13. Axborot portali orqali taklif kiritish bevosita portalda ro'yxatdan o'tish orqali amalga oshiriladi.

14. Fuqarolar tomonidan tanlangan ichki yo'llar axborot portalida avtomatik ravishda taklif sifatida shakllanadi va boshqa fuqarolarning ovoz berishi uchun imkoniyat yaratiladi.

15. Har bir tuman va shaharlarda bildirilgan takliflar bo'yicha berilgan eng ko'p ovozlar sonidan kelib chiqib, yuqoridan pastga qarab saralanadi.

16. G'olib takliflar tuman (shahar) mahalliy budjetlari parametrlarida hududiy ichki yo'llarni ta'mirlash uchun ajratilgan mablag'larning kamida 50 foizi doirasida takliflarni amalga oshirish qiymatini hisobga olgan holda avtomatik tarzda ketma-ketlik bo'yicha aniqlanadi.

17. Agar ketma-ketlik bo'yicha g'olib deb topilgan takliflarning amalga oshirish qiymati tegishli tuman (shahar) mahalliy budjeti parametrlarida hududiy ichki yo'llarni ta'mirlashga ajratilgan mablag'larning 50 foizidan kam bo'lsa, tegishli tuman (shahar) mahalliy budjeti parametrlarida hududiy ichki yo'llarni ta'mirlashga ajratilgan mablag'lar qiymatidan ortiq bo'lmagan ketma-ketlik bo'yicha navbatdagi taklif ham g'olib deb topiladi.

18. Har bir g'olib deb topilgan taklif uchun alohida g'azna hisobvarag'i ochiladi va tegishli mablag'lar o'tkazib beriladi.

19. G'olib deb topilgan takliflar uchun ajratiladigan mablag'larning qiymati hisob-kitobiga loyiha-smeta hujjatlari asosida aniqlik kiritiladi. Bunda, loyiha-smeta hujjatlari asosida aniqlik kiritilgan qiymat g'olib deb topilgan taklif dastlabki qiymatining 5 foizidan oshib ketishiga yo'l qo'yilmaydi. Aniqlik kiritilgan loyiha-smeta hujjatlariga asosan taklifni amalga oshirish qiymati dastlabki taklif qiymatining 5 foizdan oshib ketgan hollarda loyiha-smeta hujjatlari qayta ko'rib chiqiladi.

20. Agar g'olib deb topilgan taklifda ko'rsatilgan ichki yo'llarni ta'mirlash joriy yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Hukumatning tegishli qarorlari yoki rivojlantirish dasturlari doirasida boshqa manbalar hisobidan ta'mirlanishi nazarda tutilgan bo'lsa, axborot portaliga Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligi moliya bosh boshqarmalari tomonidan ushbu taklifni boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirilishi uchun asos bo'luvchi hujjatlar yuklanadi hamda ushbu taklif avtomatik ravishda axborot portalidagi g'oliblar ro'yxatidan chiqaradi.

Bunday hollarda axborot portalida ketma-ketlik bo'yicha g'oliblar ro'yxatini qayta shakllantiriladi.

21. G'olib deb topilgan takliflar Ichki yo'llar reyestrda qayd etib borilib, kelgusi uch yil davomida qayta taklif berish imkoniyati berilmaydi.

22. G'olib deb topilgan takliflar bo'yicha loyiha-smeta hujjatlari ushbu takliflarni ilgari surgan fuqarolar jalb qilingan holda ishlab chiqiladi, fuqarolar tomonidan ishtirok etish rad etilgan holatlar bundan mustasno.

### **3-bob. Axborot portali orqali bildirilgan jamoatchilik fikri asosida ichki yo'llarni ta'mirlashni moliyalashtirish tartibi**

23. G'olib deb topilgan takliflar bo'yicha ichki yo'llarni loyihalashtirish, ta'mirlashda tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmalari buyurtmachi vazifasini bajaradi.

24. Tuman (shahar)lar mahalliy budjetlari parametrlarida hududiy ichki yo'llarni ta'mirlash uchun ajratilgan mablag'lar tegishli tartibda tuman (shahar) moliya bo'limlari tomonidan tuman va shahar obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan ichki yo'llarni ta'mirlashga mas'ul vakolatli organga o'tkazib beriladi.

### **4-bob. Axborot portali orqali bildirilgan jamoatchilik fikri asosida ichki yo'llarni ta'mirlashni moliyalashtirish bo'yicha hisobdorlik**

25. Tuman (shahar)lar mahalliy budjetlari parametrlarida hududiy ichki yo'llarni ta'mirlash uchun ajratilgan mablag'lardan samarali foydalanishni ta'minlash hamda jamoatchilik nazoratini o'rnatish maqsadida g'olib deb topilgan takliflarni moliyalashtirish uchun ochilgan g'azna hisobvaraqlar axborot portaliga biriktiriladi va foydalanuvchilarga ajratilgan mablag'lar va ularning sarflanishi yuzasidan real vaqt sharoitida ma'lumotlar bilan tanishib borish imkoniyati yaratiladi.

26. Axborot portali orqali bildirilgan jamoatchilik fikri asosida ta'mirlangan ichki yo'llarda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan majburiy ravishda ko'rgazma planshetlari o'rnatiladi.

Planshetlarda axborot portali orqali tegishli ichki yo'lni ta'mirlashga doir kelib tushgan taklifga yo'naltiruvchi "QR" shtrix-kod bilan tasvirlangan veb-manzil aks ettiriladi.

27. Axborot portali orqali jamoatchilik nazoratini o'rnatish va mablag'lardan samarali foydalanilishini ta'minlash maqsadida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni amalga oshirish bosqichlari bo'yicha tashabbuskorlar quyidagi hollarda SMS-xizmati orqali xabardor etib boriladi:

taklif g'olib deb topilganda;

g'olib deb topilgan taklifni moliyalashtirish uchun mablag' hisobvaraqqaga kelib tushganda;  
 g'olib deb topilgan taklifni amalga oshirish maqsadida shartnoma imzolanganda (pudrat tashkiloti nomi, shartnoma summasi va davlat xaridlari portalidagi maxsus raqami);  
 moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'lar hisobidan xarajatlar amalga oshirilganda (qaysi tashkilotga mablag' o'tkazilganligi, mablag' miqdori va to'lov maqsadi).

28. G'olib deb topilgan takliflar asosida manzilli ro'yxatga kiritilgan ichki yo'llari bo'yicha loyiha hujjatlarini, ishlar ro'yxatini tasdiqlanishi to'g'riligini, budget mablag'larini maqsadli sarflanganligi, tasdiqlangan loyiha hujjatlari asosida olib borilayotgan ta'mirlash ishlari hajmi va sifati ustidan jamoatchilik nazorat o'rnatish maqsadida ushbu takliflarni ilgari surgan fuqarolar jalb qilinadi fuqarolar tomonidan ishtirok etish rad etilgan holatlar bundan mustasno.

Bunda, axborot portalida har bir loyihalar bo'yicha jamoatchilik nazorati natijalari joylashtiriladi va har bir taklif va e'tirozlarga mahalliy organlar va buyurtmachilar tomonidan asoslantirilgan javoblar qoldiriladi.

### 5-bob. Yakunlovchi qoidalar

29. Ushbu Nizomga asosan ichki yo'llarni ta'mirlash tadbirlari uchun ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi, keyinchalik ushbu yo'llardan foydalanish bo'yicha ichki yo'llarni ta'mirlash uchun mas'ul vakolatli organ shaxsan javobgar hisoblanadi.

30. Tuman (shahar)lar mahalliy budjetlari parametrlarida hududiy ichki yo'llarni ta'mirlash uchun ajratilgan mablag'lardan belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi ustidan nazorat Moliya vazirligi Davlat moliyaviy nazorati departamenti va uning hududiy boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

31. Ushbu Nizomga muvofiq ta'mirlangan yo'llarning davlat standartlariga muvofiq ekanligi va texnik talablarga mosligi ustidan doimiy nazorat Yo'l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

32. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Tuman (shahar)lar mahalliy budjetlari parametrlarida hududiy ichki xo'jalik yo'llarini ta'mirlash uchun ajratilgan mablag'larni jamoatchilik fikri asosida aniqlangan ichki xo'jalik yo'llarni ta'mirlashga yo'naltirish tartibi to'g'risida nizomga

ILOVA

### Jamoatchilik fikri asosida ichki xo'jalik yo'llarni ta'mirlash uchun tuman (shahar) budjeti mablag'larini yo'naltirish SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Tuman (shahar) hokimliklari	1. Tuman (shahar) mahalliy budjetlari parametrlarida hududiy ichki xo'jalik yo'llarini ta'mirlash uchun ajratilgan mablag'lar miqdori hamda hududlar bo'yicha aniqlangan o'rtacha narx summasi axborot portalida e'lon qilinadi.	Har yili 15-dekabrga qadar
	Tuman (shahar) hokimliklari	2. Rasmiy veb-saytlar, hududiy OAV orqali taklif bildirish jarayoni boshlanishi haqida e'lon beradi.	Har yili 15-dekabrga qadar
2-bosqich	Tashabbuskor fuqarolar	Fuqarolar tomonidan Ichki xo'jalik yo'llarini ta'mirlash yuzasidan "Ochiq budjet" axborot portalida taqdim etilgan Ichki xo'jalik yo'llari	Har yili yanvar oyining 10 sanasiga qadar

		reyestridan tegishli ichki xo'jalik yo'llaridan birini tanlash orqali taklif qoldiriladi.	
3-bosqich	Ovoz berish istagini bildiruvchi fuqarolar	Bildirilgan takliflar orasidan takliflarga ovoz beradi.	Moliya yilining 10 — 31-yanvar kunlari davomida
4-bosqich	“Ochiq budjet” axborot portali	Tuman (shahar) mahalliy budjetlari parametrlarida hududiy ichki xo'jalik yo'llarini ta'mirlash uchun ajratilgan mablag'larning kamida 50 foizi doirasida takliflarni amalga oshirish qiymatini hisobga olgan holda avtomatik ravishda ketma-ketlik bo'yicha g'olib takliflar aniqlanadi.	Fevral oyida
5-bosqich	Tuman (shahar) moliya bo'limlari	Har bir g'olib deb topilgan taklif uchun alohida g'azna hisobvarag'i ochiladi va tegishli mablag'lar o'tkazib beriladi.	Aprel oyida
6-bosqich	Tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmalari	G'olib deb topilgan takliflar uchun ajratiladigan mablag'larning qiymati hisob-kitobiga loyiha-smeta hujjatlari asosida aniqlik kiritiladi.	Aprel oyida
7-bosqich	Obodonlashtirish boshqarmalari	Ajratilgan mablag'lar doirasida ichki xo'jalik yo'llarini ta'mirlash uchun pudratchi tashkilot bilan shartnomalar rasmiylashtirilib, ishlar bajariladi.	Yil davomida
8-bosqich	Tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmalari	Ta'mirlangan yo'llarga maxsus “QR” shtrix-kod tushirilgan ko'rgazma planshetlar o'rnatiladi.	Ta'mirlash ishlari yakunlangandan so'ng

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.02.2022-y., 09/22/49/0091-son)

"ГАС ДИР" МАМЛАКАТИ  
 Гулистон шаҳар ҳокимлиги  
 1.1. Далабосен  
 2022 й.

Гулистон шаҳар ҳокимлиги тасарруфида бўлган тегишсиз хўжалик йўллари (шакл автомобиль йўллари, шакл ички хўжалик йўллари, туман марказлари автомобиль йўллари, туман хўжаликларига (кинома) автомобиль йўллари, туман/шаҳар پوستбослари автомобиль йўллари) маҳаллий бюджет маблағлари ҳисобидан таъмирланган шилари бўйича 2022 йил учун  
 МАЎБИЛДН РЎПХАТИ

№	Харajat тури	Объектлар шим ва маниси	Куралми болжамно ва тутқаловин билан	Далабосен куралини тегилсин (м2)	Пудрат шартномма куралини вақтда куралинилар учундай қилганга	Кураловини 2022 йил 1 январь қилганга куралини болжамно	2022 йил қилсин қилганлар	Кураловини шиларини куралиниларини узуммай қилганга	Шу жумладан:										2022 йил 1 январь қилганга узуммай қилганга бўйича шиларини қилганга	Тегилсин болжамно шиларини қилганга болжамно шиларини қилганга болжамно шиларини қилганга	2022 йил 1 январь қилганга болжамно шиларини қилганга болжамно шиларини қилганга	Пудратини куралини қилганга			
									шакл:																
									Тудрин йилни қилганга		Тегилсин йилни қилганга		Асфалт йилни қилганга		Далабосен йилни қилганга		Болжамно қилганга								
									м2	сумма	м2	сумма	м2	сумма	м2	сумма	м2	сумма							
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24		
Гулистон шаҳар (туман) бўйича жами:			2022	10 800	3 555 481	0	4 275 572	4 194 748	0	744 275	0	1 859 936	0	1 002 788	0	0	80 824	0	80 824						
шундан:																									
Жами жамоатчилик фикри асоснда аниқланган объектлар				3 861	1 698 199	0	1 756 177	1 717 107	0	0	0	1 290 838	0	426 269	0	0	39 070	0	39 070						
параметрда қолган маблағлар ҳисобидан				6 939	1 857 283	0	2 519 395	2 477 641	0	744 275	0	569 098	0	576 519	0	0	41 754	0	41 754						
7 045 201																									
7 045 201																									
1	жамоатчилик фикри асоснда аниқланган	Баҳор МФЙ Ёшлар кўчаси	2022	1 528	524 837		544 329	530 139				530 139					14 190	0	14 190	0	118 106	№ 48072 22-16.07.22	06-22	БРК Гулистон МЧЖ	
2	жамоатчилик фикри асоснда аниқланган	Ахиллик МФЙ Муруват (Г.Гулом) кўчаси	2022	848	420 269		436 959	426 269						426 269			10 690	0	10 690	0	118 107	№ 48197 23-16.07.22	06-22	РМК-128	
3	жамоатчилик фикри асоснда аниқланган	Удугўба МФЙ Элобод кўчаси	2022	1 485	753 092		774 889	760 699				760 699					14 190	0	14 190	0	129 098	№ 48178 23-04.08.22	06-22	БРК Гулистон МЧЖ	
жамоатчилик фикри асоснда аниқланган объектлар жами:				3 861	1 698 199	0	1 756 177	1 717 107	0	0	0	1 290 838	0	426 269	0	0	39 070	0	39 070	0					
1	параметрда қолган маблағлар ҳисобидан	Ахиллик МФЙ Самарқанд кўчаси	2022	475	270 750		280 106	273 485						273 485			6 621	0	6 621	0	128 646	№ 42438 18-03.08.22	05-22	БРК Гулистон МЧЖ	
2	параметрда қолган маблағлар ҳисобидан	Нурафиюн МФЙ 19 кварталга олиб борувчи йўл	2022	870	210 581		217 019	213 198		213 198							3 821	0	3 821	0	133 021	№ 42440 18-12.08.22	05-22	ООО Ойбек мах креда микро	
3	параметрда қолган маблағлар ҳисобидан	Удугўба МФЙ Нуртепа кўчаси	2022	825	165 451		171 901	168 281		168 281							3 620	0	3 620	0	121 265	№ 42445 18-26.07.22	05-22	ООО Ойбек мах креда микро	
4	параметрда қолган маблағлар ҳисобидан	Баҳор МФЙ Қадрият кўчаси	2022	1 065	360 000		369 417	362 796		362 796							6 621	0	6 621	0	133 016	№ 42464 18-12.08.22	08-22	БРК Гулистон МЧЖ	
5	параметрда қолган маблағлар ҳисобидан	Соҳил МФЙ Нурди йўл кўчаси	2022	909	560 501		581 219	569 098				569 098					12 121	0	12 121	0	121 559	№ 42442 18-22.07.22	05-22	РМК-128	
6	параметрда қолган маблағлар ҳисобидан	Намуна МФЙ Бухоро кўчаси	2022	475	290 000		311 984	303 034						303 034			8 950	0	8 950	0	133 019	№ 52363 22-12.08.22	07-22	БРК Гулистон МЧЖ	
тақсимланмаган лимит			2022	2 320			587 749	587 749													0				
параметрда қолган маблағлар ҳисобидан аниқланган объектлар ва тақсимланмаган лимит жами:				6 939	1 857 283	0	2 519 395	2 477 641	0	744 275	0	569 098	0	576 519	0	0	41 754	0	41 754	0					

Гулистон шаҳар Ошқардаш урши бошқармаси бошланги  
 С. Гаипов  
 2022 й

Гулистон шаҳар ҳокимлиги  
 қурлини шиларини бўйича ўринбосари  
 З. Умарқуллов  
 2022 й

Гулистон шаҳар ҳокимлиги  
 Мобил бўлими мудири  
 У. Вудилоев  
 2022 й



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI  
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»  
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Сирдарё вилояти

Sirdaryo viloyati 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Hondamir ko'chasi, 7-uy, Tel. +998 67  
226-06-61, E-mail: sirdarya\_davekspert@mail.ru, www.ekspertiza.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Gaimov Bo'riboy Xolbayevich

Sana: 18-05-2022 yil



**Yig'ma ekspert xulosasi № 42445**

**Obyekt nomi** «Guliston shahar "Ulug` yo`l" MFY "Nur tepa" ko`chasini joriy ta'mirlash" (825 m)»

**Buyurtmachi** - Guliston shahar Obodlashtirish boshqarmasi

**Bosh loyihachi** - OOO YO`L LOYIHA GULISTON

**Litsenziya** AL-001956 08.11.2021

**Moliyalashtirish manbai** - mahalliy buydjet

**Bosh pudratchi** - танлов асосида

**Qurilish turi** Joriy ta'mirlash

**Murojaat raqami:** № 41230

**1. Loyihalash uchun asos**

- 1.1. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalashtirish topshirig'i.
- 1.2. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan Nuqson dalolatnomasi.
- 1.3. Buyurtmachi va "Yo'l loyixa Guliston" MChJ o'rtasida tuzilgan №278628 -sonli 05.05.2022 yil shartnoma.

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar**

- 2.1. Buyurtmachining 13.05.2022 yildagi smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish to'g'risidagi № 41230 -son elektron murojaati.
- 2.2. "Yo'l loyixa Guliston" MChJning 11.05.2022 yildagi №- 53-son xati.
- 2.3. Smeta xujjatlari. Ko'chalar joylashuv sxemasi.

**3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni**

3.1 "Guliston shahar "Ulug` yo`l" MFY "Nur tepa" ko`chasini joriy ta'mirlash" (825 m) ishlariga tayorlangan loyiha smeta xujjatlari "Yo'l loyixa Guliston" MChJ loyiha tashkiloti tomonidan buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan loyiha topshirig'i va nuqson dalolatnomaga asosan ishlab chiqilgan.